

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YUSUPOV FARRUXBEK FARXODOVICH**

**SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA  
XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Огловления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economical sciences**

**Yusupov Farruxbek Farxodovich**

Soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni  
takomillashtirish yo'llari.....3

**Юсупов Фаррухбек Фарходович**

Пути улучшения оказания услуг налогоплательщикам в налоговом  
администрировании.....27

**Yusupov Farruxbek Farxodovich**

Improving the provision of services to taxpayers in the tax administration.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**YUSUPOV FARRUXBEK FARXODOVICH**

**SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA  
XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.4.PhD/Iqt3545 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tuxliyev Bozor Karimovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov Xurshid Xurramovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Fayzulloev Mirsaid Shuhratovich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**S.U.Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**S.K.Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vazifalarini samarali amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishning budjet imkoniyatlari hamda davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlari manfaatlariga ta'sir ko'rsatish vositalaridan faol foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishda soliqlar va yig'imlar katta rol o'ynamoqda. Axborot oqimlarining misli ko'rilmagan hajmlari va katta ma'lumotlarni tahliliy qayta ishlash texnologiyalarining rivojlanishi soliq ma'muriyatchiligining budjet tizimidagi budjet daromadlarni, shu jumladan soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va soliq munosabatlari ishtirokchilarining xatti-harakatlariga ta'sir qilish orqali ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, ichki va xalqaro aspektlarda iqtisodiy faoliyat sharoitlarining o'zgarishi, raqamli texnologiyalar davlat va soliq to'lovchilar uchun qo'shimcha soliq risklarini keltirib chiqarib, soliq sohasida prinsipial yangi munosabatlarni shakllantirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Bularning barchasi soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish va soliq nazorati bilan bog'liq bo'lib, bu boradagi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish muhimligini belgilab beradi.

Jahonda global moliyaviy beqarorlikning oldini olish zaruriyati oshib borayotgan sharoitda soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga bag'ishlangan izlanishlar olib borilmoqda. Soliq munosabatlari ishtirokchilari xulq-atvorining o'zaro ta'siri, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish va uslubiy ta'minlashning konseptual yangi yondashuvlarini ishlab chiqish, davlat hamda munitsipalitetlar majburiyatlarining bajarilish samaradorligini oshirish, soliq bazasini kengaytirish, soliqni boshqarishning tashkiliy-huquqiy shartlari va soliq ma'muriyatchiligining sifatini ta'minlash, soliq organlari faoliyatiga axborot texnologiyalarini faol joriy etish, soliq nazorati samaradorligini oshirish, soliq tavakkalchiligini boshqarish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi"<sup>1</sup>. Bu borada soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda soliq to'lovchilar bilan munosabatlar, shu jumladan, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish ma'muriyatchiligi rivojlantirishda soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olish, soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishning maqbul darajasini aniqlash muammosini hal etish, soliq to'lovchilar hisobotlarining soliq organlari tomonidan hisoblab chiqarilishi va shakllantirib berilishi jarayonlarini takomillashtirish, ko'chmas mulkdan foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish, soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini hal etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yo'llarining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar G.Colm, J.Mintz, G.Nicodème, Ye.Shkrebela, S.Bikova, R.Grey, N.Tankus, S.Bank, S.Pollack, A.Tatuyko, M.Knoll, O.Pinto, M.Abdellatif, N.László, C.Catalina, R.Margareta, C.Pöschel va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Vahobov, B.Tuxliyev, N.Kuziyeva, E.Gadoyev, Sh.Babayev, Q.To'xsanov, B.Ibragimov, U.Normurzayev va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. Soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yuzasidan Sh.Toshmatov, Q.Bazarov, M.Eshonov, Sh.Sobirovning ilmiy ishlarida tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Toshmatov, N.Jumayev, T.Malikov, N.Haydarov, M.Alimardanov, B.Toshmurodova, E.Gadoyev, Q.Xoshimov, N.Quziyeva, O.Iminov, O.Olimjonov, A.Jo'rayev va I.Turaboyevning ilmiy ishlarida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, xususan, soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish munosabatlarining ayrim nazariy va amaliy jihatlari o'z aksini topgan.

Soliqqa tortish tizimining ajralmas qismi sifatida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bu borada mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ayrim tadqiqotlar mazkur muammoning soliqqa tortish jarayonlari bilan va uning huquqiy jihatlari bilan cheklangan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan soliq to'lovchilarga xizmat

ko'rsatish ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalasi mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmaganligi ushbu sohadagi muammolarni hal qilish bo'yicha fundamental tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini taqozo etmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

soliq ma'muriyatchiligida soliq xizmatlarini ko'rsatishning o'rnini va ahamiyati;

soliq hisobotlarni soliq organlari tomonidan shakllantirib berish va uning o'ziga xos jihatlarni ilmiy asoslash;

ko'chmas mulk ijara yoki tekin foydalanish shartnomalarini soliq xizmati organlarida hisobga olishning ahamiyatini ochib berish;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish obyekti bo'yicha hisobga qo'yishni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali hisobvaraqlardagi ma'lumotlarni onlayn tarzda olishni takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida barcha soliq to'lovchilar bo'yicha faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish maqsadida soliq ma'muriyatchiligi munosabatlari bilan bog'liq iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tahlil, sintez, SWOT tahlil, qiyoslov, ijtimoiy so'rov, ekonometrika modellaridan foydalaniladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

soliq to'lovchilarning tanloviga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va er soliqlari bo'yicha soliq hisobotlarini soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda hisoblab chiqarilishi va shakllantirib berish tartibiga o'tish orqali soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish takomillashtirilgan;

soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish ob'ekti bo'yicha hisobga qo'yishni soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshirishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar, yirik soliq to'lovchilar va boshqa soliq to'lovchilar toifalari nuqtai-nazaridan yondashish taklifi asoslangan;

yuridik va jismoniy shaxslarning doimiy joylashuvi (rezidentlik) faktini rasmiy tasdiqlash hamda soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish

bo'yicha davlat xizmatini takomillashtirish orqali xalqaro miqyosda ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish hamda davlat xizmati organlariga murojaat qilgan soliq to'lovchilarning vaqti va xarajatlari tejalishini ta'minlash asoslangan;

Soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq majburiyatlari hisobi yuritilayotgan (yuritilgan) tegishli shaxsiy hisobvaraqlardagi ma'lumotlar asosida onlayn tarzda soliq to'lovchilarga shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish orqali soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi munosabatlarining iqtisodiy mohiyatining yangicha talqini berilgan;

soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish yuzasidan soliq ma'muriyatchiligi munosabatlaridagi jarayonning soliq tizimidagi ahamiyati asoslangan, uni amalga oshirishning xorij tajribasi asosida takliflar ishlab chiqilgan;

soliq to'lovchilarning qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq hisobotlarining soliq organlari tomonidan hisoblab chiqarilishi va shakllantirib berilishini takomillashtirishga oid me'yorni joriy etish taklifi berilgan;

ko'chmas mulk ijara yoki tekin foydalanish shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish bo'yicha tartibni joriy qilishga oid me'yorni takomillashtirish taklifi berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, iqtisodchi olimlarning moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va xolisona tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, ma'lumotlar bazasining rasmiy va amaldagi tegishli korxonalaridan olingani, shuningdek, dissertatsiyada aks ettirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlarni amalga oshirishda, shuningdek, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish orqali soliq ma'muriyatchiligi munosabatlarni samarali tartibga solishga qaratilgan keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishi natijalarining amaliy ahamiyati unda shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni samarali tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar, amaliy chora-tadbirlar va yo'l xaritalarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi va mutaxassisligidagi fanlarning, xususan "Soliqqa tortishning xalqaro andozalari", "Soliq siyosati", "Iqtisodiyotni soliq vositasida tartibga solish", "Soliq ma'muriyatchiligi" kabi fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'quv jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.



**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

soliq to'lovchilarning tanloviga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliq hisobotlarini soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda hisoblab chiqarilishi va shakllantirib berish tartibiga o'tish orqali soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-oktabrdagi "Soliq organlari tomonidan ayrim soliq hisobotlarini shakllantirish tartibi joriy etilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 548-son qarorida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 31-oktabrdagi 33/7-109004-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xizmati organlari tomonidan ushbu jarayon yuzasidan soliq to'lovchilar bilan o'zaro hisob-kitob qilishda qulay imkon yaratilgan;

yuridik va jismoniy shaxslarning doimiy joylashuvi (rezidentlik) faktini rasmiy tasdiqlash hamda soliq rezidentligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish bo'yicha davlat xizmatini takomillashtirish orqali xalqaro miqyosda ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish hamda davlat xizmati organlariga murojaat qilgan soliq to'lovchilarning vaqti va xarajatlari tejalishini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-apreldagi "Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 150-son qarorida o'z aksini topib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 31-oktabrdagi 33/7-109004-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida chet el yuridik va jismoniy shaxslarga mamlakatda soliq imtiyozlardan foydalanishga hamda soliqqa tortish bo'yicha hisob-kitoblarni adolatlilik tamoyili asosida amalga oshirish imkoni yaratilgan;

soliq to'lovchilarni soliq organlarida soliq solish ob'ekti bo'yicha hisobga qo'yishni soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshirishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar, yirik soliq to'lovchilar va boshqa soliq to'lovchilar toifalari nuqtai-nazaridan yondashish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-apreldagi "Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 150-son qarorida o'z aksini topib, amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 31-oktabrdagi 33/7-109004-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni ob'ekt bo'yicha hisobga olishda hududlarni soliq solish ob'ekti joylashgan joyida amalga oshirilishiga imkon yaratilgan;

Soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq majburiyatlari hisobi yuritilayotgan (yuritilgan) tegishli shaxsiy

hisobvaraqlardagi ma'lumotlar asosida onlayn tarzda soliq to'lovchilarga shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarni va solishtirma dalolatnomani taqdim etish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish orqali soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-apreldagi "Soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 150-son qarorida o'z aksini topib, amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 31-oktabrdagi 33/7-109004-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida soliq to'lovchilarga masofadan turib, o'ziga tegishli soliqqa oid ma'lumotlari va qarzdorliklari yuzasidan axborot almashishiga imkon yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishining asosiy g'oya va natijalari 9 ta ilmiy maqola va ma'ruza tezislari ko'rinishida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning nazariy va iqtisodiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston soliq tizimida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning nazariy va iqtisodiy asoslari, soliqqa tortish va soliq ma'muriyatchiligi sohasida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish joriy etilishining bosqichlari va evolyusiyasi hamda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda ilg'or xorijiy tajribalari masalalari o'rganilgan.

O'zbekiston soliq tizimida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning nazariy va iqtisodiy asoslari bir qancha qonun hujjatlari bilan belgilanadi. O'zbekistonda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni tartibga soluvchi asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksidir. Unda soliqlar va yig'imlarni undirish qoidalari va tartiblarini, shuningdek soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi normalar mavjud. O'zbekiston soliq kodeksiga muvofiq soliq xizmati soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini to'g'ri bajarishda ma'lumotni taqdim etishi, maslahat va yordam ko'rsatishi shart. Soliq to'lovchilar, shuningdek, soliq qonunchiligiga aniqlik kiritishni so'rab soliq xizmatiga murojaat qilish va

belgilangan muddatda javob olish huquqiga ega. O‘zbekistonda soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning nazariy asoslaridan biri aholiga soliq xizmati ko‘rsatish tamoyilidir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, soliq tizimi soliq to‘lovchilarning manfaatlarini qondirishga va ularga soliq majburiyatlarini bajarish uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlashga qaratilishi kerak. O‘zbekiston soliq tizimida soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni tartibga soluvchi boshqa Nizom va uslubiy tavsiyalar ham mavjud. Masalan, bu Iqtisodiyot va moliya vazirligining soliqlarni hisobga olish, soliq tekshiruvlari va boshqa soliq protseduralarini o‘tkazish tartibini tasdiqlovchi buyruqlari va ko‘rsatmalari hisoblanadi. O‘zbekiston soliq tizimi soliq to‘lovchilar uchun soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish va soliqlarni internet orqali to‘lash kabi elektron xizmatlarni ham faol rivojlantirmoqda. Bu soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonini tezlashtirish va soddalashtirish, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarishda ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish tizimi sifatida elektron soliq hisoboti bu korxonalar va tashkilotlar soliq deklaratsiyalari va hisobotlarini qog‘oz hujjatlardan foydalanmasdan elektron shaklda taqdim etadigan tizim bo‘lib, soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini soddalashtirish, ma‘lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni kamaytirish va soliq organlari tomonidan yanada samarali nazoratni ta‘minlash maqsadida O‘zbekistonda elektron soliq hisoboti (ESH) tizimi joriy etildi. O‘zbekistonda ESH tizimidan foydalanish uchun korxonalar va tashkilotlar tegishli soliqlar bo‘yicha soliq to‘lovchilar sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi va davlat idorasidan elektron hujjatlarni imzolash uchun foydalaniladigan elektron imzo olishi kerak. ESH tizimi bir qator omillar yordamida soliq hisobotlarini taqdim etish imkonini beradi. Bunda foyda solig‘ini hisoblash, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i hisobotlarini topshirish, ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha soliq hisobotlarini topshirish (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq va boshqalar.), jismoniy shaxslarni deklaratsiyalari va hisobotlari. Soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish O‘zbekiston soliq qonunchiligida belgilangan muddatlarda to‘ldirilishi shart.

Soliq kodeksiga asoslangan holda soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning mohiyatini to‘laroq anglash maqsadida uning tarkibiy tuzilishini quyidagi 1-rasmda aks ettiramiz. Soliq xizmatlari shakllari va elementlari faoliyat turiga, korxonalar miqyosiga va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin. O‘zbekistonda soliq xizmati davlat soliq organlari, xususan, uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish shakllari va elementlaridan foydalanib, amalga oshirish bosqichlari mavjud. Unda, soliq to‘lovchini ro‘yxatdan o‘tkazish, yuridik shaxslar asosiy va qo‘shimcha tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan joyda soliq organida ro‘yxatdan o‘tish tartibidan o‘tadilar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar ham tegishli soliq organida ro‘yxatdan o‘tishlari shart hisoblanadi. Keyingi bosqichda soliq deklaratsiyasini taqdim etish amalga oshirilib, soliq to‘lovchilar belgilangan muddatlarda daromadlari va xarajatlari bo‘yicha soliq deklaratsiyalarini, shuningdek soliq ko‘rsatkichlarini taqdim etadilar. Soliqlarni to‘lash bosqichida esa soliq to‘lovchi soliq deklaratsiyasida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida belgilangan soliqlarni to‘laydi.



**1-rasm. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish shakllari va elementlari.<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Keyinchalik soliq organi tomonidan nazorat tadbirlari olib borilib, unga ko'ra soliq organlari soliqlarning o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishini nazorat qiladi, shuningdek taqdim etilgan soliq hisobotlarining ishonchliligini tekshiradi. Bunda soliq organlari soliq to'lovchilarga soliq solish masalalari bo'yicha maslahat va tushuntirishlar beradi, shuningdek soliq hisobotlarini va deklaratsiyasini to'ldirishda yordam beradi. Oxirigi bosqichlarida soliq qarorlari qabul qilinadi, agar soliq to'lovchi soliq qaroriga rozi bo'lmasa, u tegishli organlarga shikoyat qilish huquqiga ega.

### 1-jadval

#### Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha 2020-2023-yillar davomida berilgan maslahatlar bo'yicha ma'lumot<sup>3</sup>

Bajariladigan ishlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	Jami
Kelib tushgan murojaatlarga javob berish (umumiy soni):	2464	2555	2783	2990	10792
Elektron pochta orqali	19	0	0	0	19
Ishonch telefoni	6	0	0	0	6
my.soliq.uz (EDO)	349	578	573	622	2122
Telefon qo'ng'iroqlar orqali	32	29	24	24	109
Telegram guruhlar	0	0	21	0	21
Telegram guruhlar	2115	1977	2189	2368	8649
Soliqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishda qatnashish bo'yicha	37	102	96	32	267
Soliq to'lovchilar bilan tashkil etilgan seminar va brifinglar	10	69	36	34	149
Iqtisodiy jurnallarda, soliq sohasidagi yangilik va o'zgarishlar bo'yicha hamda soliq to'lovchilar tomonidan tez-tez taqdim etiladigan savollarga namuna javoblar sifatida maqolalar berib borish	16	21	29	24	90
Yirik soliq to'lovchi vakillari bilan uchrashuv	3	4	7	6	20
Inspeksiya xodimlarining bilim saviyasini oshirish bo'yicha test sinovlarini o'tkazish	6	50	6	0	62
Xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha tashkillashtirilgan tadbirlar	6	13	36	12	67
Televidenie va radiolarda soliq sohasidagi o'zgarish va yangiliklar bo'yicha eshittirish berib borish	7	15	19	22	63

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish hayotiy zarurat hisoblanadi. Bu jarayonda

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

iqtisodiy zanjirning muhim halqalaridan biri bo'lgan soliq tizimi barchaga teng va erkin raqobat sharoitini yaratishda kamarbasta bo'lishi kerak. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yilda yangi soliq konsepsiyasining qabul qilinishi ana shu maqsadlarga erishishning strategiyasini belgilab berilgan. Soliq tizimda yangi islohotlarni boshlab bergan mazkur konsepsiyadan oldingi holatga nazar tashlasak, 97 foiz soliq to'lovchilar soddalashtirilgan rejimda faoliyat yuritib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi qariyb 60 foizga yetgani holda, budjet tushumlaridagi hissasi bor-yo'g'i 9,2 foizga teng bo'lgan. Umumbelgilangan soliq to'lovchilar zimmasiga tushgan asosiy soliq yuki atigi 3 foizni tashkil etgan. Hozirgi kunda, biznesda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi natijasida butunlay yangi soliq ma'muriyatchiligi yuzaga keldi.

Mazkur 1-jadvalda soliq to'lovchilar tomonidan berilgan murojaatlar natijasida bir qator takliflar ham olindi. Ushbu soliq to'lovchilar tomonidan berilgan takliflar 2024-yilgi soliq konsepsiyasida inobatga olindi. Xususan, banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni QQS tortish bo'yicha berilgan taklif inobatga olindi va natijasida qo'shimcha manba kutilmoqda. Shuningdek, foyda solig'i bo'yicha banklar tomonidan zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlarini soliqqa tortish va qo'shimcha manba bo'yicha ham takliflarni inobatga olindi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-sonli Qonuniga muvofiq, elektron raqamli imzo (ERI) - bu elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo hisoblanadi. Bunda ERI shaxsiy kaliti bu elektron raqamli imzo vositalari yordamida olingan, faqat imzolagan shaxsga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda ERI yaratishga mo'ljallangan belgilar ketma-ketligidir. ERI ochiq kaliti esa bu shaxsiy kalitiga mos keladigan, axborot tizimining istalgan foydalanuvchisi uchun ochiq bo'lgan va elektron hujjatda ERI haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan elektron raqamli imzo vositalari yordamida olingan belgilar ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi.

Soliq xizmatining elektron xizmatlari soliq solish jarayonlarini va soliq to'lovchilarning soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarini soddalashtirish va tezlashtirish uchun taqdim etiladi. Ushbu xizmatlardan ba'zilari soliq deklaratsiyasini elektron tarzda topshirish, soliq to'lovchilar soliq xizmatining elektron tizimi orqali soliq deklaratsiyasini to'ldirishlari va topshirishlari mumkin.

Soliqlarni elektron hisoblash, soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini hisoblash uchun elektron kalkulyator va dasturlardan foydalanishlari mumkin. Mazkur jarayonlar 2-rasmda keltirilgan soliq xizmatining elektron xizmatlari yordamida amalga oshiriladi.



**2-rasm. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda axborot xizmatlarini turkumlanishi<sup>4</sup>**

Yuqoridagi rasmda keltirilgan davlat soliq xizmatining elektron xizmatlari asosida ma'lumotlarga elektron kirish orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq ma'lumotlari va hujjatlaridan soliq xizmatining elektron tizimi orqali foydalanishlari mumkin. Elektron to'lovlar bilan soliq to'lovchilar soliq majburiyatlarini elektron to'lov tizimlari orqali to'lashlari mumkin. Bundan tashqari, soliq organlari bilan elektron aloqalar yordamida soliq to'lovchilar soliq organlari bilan aloqa qilishlari, savollar berishlari va elektron aloqa kanallari orqali maslahat olishlari mumkin. Ushbu elektron xizmatlarning barchasi soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirish va tezlashtirishga yordam beradi, bu esa soliqqa tortishning yanada samarali va shaffof bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, soliq bo'yicha konsalting xizmati ya'ni soliq masalalari bo'yicha maslahat va tavsiyalar berish, shu jumladan soliq majburiyatlarini optimallashtirish. Soliq hisobotlarini topshirishda ularni tayyorlash, unda turli soliq hujjatlarini, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), daromad solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish hisoblanadi.

Soliq majburiyatlarini nazoratida soliq qonunchiligiga muvofiqligini tekshirish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va xatolarni aniqlash, shuningdek, soliq strategiyasini tayyorlash orqali jismoniy va yuridik shaxslar uchun maqbul soliq solish va rejalashtirish strategiyasini ishlab chiqish. Bunda soliqlarni hisoblash, daromad va xarajatlar miqdori asosida soliq to'lovlari miqdorini hisoblash, soliq organlari oldida mijozning manfaatlarini ifodalash, soliq organlariga murojaat qilish, soliq organlari bilan nizolar va nizolarni hal qilish. Ayniqsa, soliq

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

majburiyatlarini nazorat qilish va ularga rioya qilish, soliq majburiyatlarini nazorat qilish hamda ularga rioya qilishda yordam berish, shu jumladan hujjatlarni topshirish va soliqlarni to'lash muddatlarini monitoring qilish. Soliq qarorlarining bajarilishida soliq qarorlarining bajarilishini va soliq summalarini to'lashni ta'minlash, shuningdek, o'quv va o'quv dasturlari asosida soliq sohasidagi mijozlar va mutaxassislar uchun soliq mavzularida seminarlar, treninglar va o'quv dasturlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarning qulay va xavfsiz usulini ta'minlaydi. Unda soliqlarni to'lash va soliq nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq turli operatsiyalarni bajarishingiz mumkin. Quyida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetidan taqdim etilgan ma'lumotlar dinamikasi keltirilgan. (3-Rasmga qarang.)



### 3-rasm. Soliq to'lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish dinamikasi<sup>5</sup>

Yuqoridagi rasmda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish dinamikasida asosan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar shaxsiy kabinetdan samarali foydalanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Soliq hisobotlarini topshirishda shaxsiy kabinetdan foydalangan holda soliq hisobotlarini (deklaratsiyalarni) onlayn to'ldirish va topshirishi mumkin. Soliqlarni to'lashda esa shaxsiy hisob elektron to'lov tizimlari yoki bank kartalari orqali turli soliqlarni to'lash imkoniyatini beradi. Bunda hisobning holati to'g'risida ma'lumot olish va shaxsiy kabinet orqali soliq hisobning joriy holati, shu jumladan hisoblangan va to'langan soliqlar miqdori haqida bilib olish mumkin. Ijro hujjatlarini tekshirishda esa shaxsiy kabinet orqali soliq to'lovchiga nisbatan ijro hujjatlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish mumkin.

Soliq organlari bilan aloqani yo'lga qo'yish maqsadida shaxsiy kabinetda soliq organlari bilan elektron xabarlar orqali bog'lanish, savollar berish va ularga javob olish imkonini beradi. Bildirishnomalarni olish: shaxsiy hisob soliq to'lovchini soliqlarni to'lash bilan bog'liq muhim voqealar, masalan, soliq qonunchiligidagi so'nggi o'zgarishlar yoki deklaratsiyani topshirish muddati yaqinlashayotgani haqida xabardor qiladi.

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.



2-jadval

Respublika bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i, aylanma soliq, mol-mulk va yer soliqlar bo'yicha hisobotlarni topshirilishi<sup>6</sup>

2019-2023-yillar davomida soliq turlari bo'yicha																
Yillar kesimida	Aylanmadan olinadigan soliq				QQS				Mol-mulk o'lig'i		shundan, hisobot kechikib topshirgan yoki topshirmaganlar		Yer solig'i		shundan, hisobot kechikib topshirgan yoki topshirmaganlar	
	YaTT	Yuridik shaxs	shundan, hisobot kechikib topshirgan yoki topshirmaganlar		YaTT	Yuridik shaxs	shundan, hisobot kechikib topshirgan yoki topshirmaganlar		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
			soni	%			soni	%								
2019-y	33 288	233 752	5 231	2,0	1 388	144 204	22 693	15,6	63 579	12 291	19,3	150 757	60 231	39,9		
2020-y	35 040	246 055	5 079	1,8	1 461	151 793	22 032	14,4	66 925	11 933	17,8	158 692	58 477	36,8		
2021-y	36 885	259 005	4 931	1,7	1 538	159 782	21 390	13,3	70 447	11 585	16,4	167 044	56 774	34,0		
2022-y	38 826	272 637	4 787	1,5	1 619	168 192	20 767	12,2	74 155	11 248	15,2	175 836	55 120	31,3		
2023-y	57 281	391 579	8 601	1,9	17 076	2 017 680	68 076	3,3	887 520	187 380	21,1	2 019 120	371 088	18,4		

17 <sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Dissertatsiyaning “**Soliq ma’muriyatchiligida soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish amaliyotining tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlardan foydalanishning amaldagi holati tahlili, soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish orqali soliqlarni hisoblash mexanizmlarining tahlili hamda zamonaviy soliq xizmatlarining samaradorligi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan.

Soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishda soliq hisobotlarini avtomatik ravishda shakllantirilib, soliq organlari ma’lumotlari asosida hisobot tayyorlanadi va soliq to‘lovchining tanloviga ko‘ra hisobot qabul qilinadi. Hisobotlarni topshirilishini 2-jadvaldagi tahliliy ma’lumotlarda ko‘rishimiz mumkin. Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, mol-mulk solig‘i va yer soliqlarini hisobotlarini topshirilishi hududlar kesimida keltirib o‘tilgan.

2-jadvalda keltirilgan tahliliy ma’lumotlarda shuni ko‘rishimiz mumkinki, 2022-yilda soliq hisobotlarni kechikib yoki topshirmaganlar aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha 1,5 foizni tashkil etmoqda. Bunda soliq hisobotlarni o‘z vaqtida topshirmaslik natijasida hisoblangan soliqlar bo‘yicha undirish darajasi kamayib ketmoqda. Bu ko‘rsatkich qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha 12,2 foizni, mol-mulk solig‘i bo‘yicha 15,2 foizni, yer solig‘i bo‘yicha esa 31,3 foizni tashkil etmoqda.

2023-yilda soliq hisobotlarni kechikib yoki topshirmaganlar aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha 2 foizni tashkil etmoqda. Bunda soliq hisobotlarni o‘z vaqtida topshirmaslik natijasida hisoblangan soliqlar bo‘yicha undirish darajasi kamayib ketmoqda. Bu ko‘rsatkich qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha 3,3 foizni, mol-mulk solig‘i bo‘yicha 21,1 foizni, yer solig‘i bo‘yicha esa 18,4 foizni tashkil etmoqda.

Ushbu soliq ma’muriyatchiligida soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni ahvoli qoniqarli ahvolda deb bo‘lmaydi. Bunda yaxshilash yo‘llari sifatida quyidagilari vazifalari amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Ular:

soliq to‘lovchilar soliq ma’muriyatchiligidan sifatli xizmat ko‘rsatsa, ular soliq qonunchiligiga va me’yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilishlari mumkin;

xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish soliq to‘lovchining qoniqishini oshirishi mumkin, bu esa ixtiyoriy rioya qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

soliq ma’muriyatchiligi soliq to‘lovchilarga aniq va aniq ma’lumotlarni taqdim etish orqali soliq tizimida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashi mumkin;

soliq to‘lovchilar va soliq ma’murlari o‘rtasidagi samarali aloqa soliq to‘lovchilarning soliq qonunlari va qoidalarini tushunishlarini yaxshilaydi va ularga rioya qilishga yordam beradi;

soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning yaxshilanishi soliq ma’muriyatchiligining yanada samarali bo‘lishiga olib keladi, bu esa soliqlarni yig‘ish va ularga rioya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Qachonki soliq to‘lovchilar soliq to‘g‘risidagi qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilish imkoniyati yuqori bo‘lsa va soliq ma’muriyatchiligi

samaraliroq bo'lsa, soliq tushumlari ortishi mumkin. Soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha ba'zi mumkin bo'lgan vazifalarni amalga oshirish lozim.


Soliq tartib-taomillarini soddalashtirish va ularni qulayroq qilish soliq to'lovchilar zimmasidagi yukni kamaytirish va ularning tajribasini oshirishga xizmat qiladi. Soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari to'g'risida aniq va to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash chalkashliklar va xatolarni kamaytirishga yordam beradi. Soliq to'lovchilarga ularning soliq mablag'lari qanday ishlatilishi haqida ko'proq ma'lumot berish soliq tizimiga bo'lgan ishonch va ishonchni oshirishga yordam beradi. Texnologiyalardan foydalanish jarayonlarni avtomatlashtirish, qog'ozbozlikni qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligining tezligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Soliq ma'muriyatchiligi xodimlarining malakali va soliq qonunchiligi va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan xabardor bo'lishini ta'minlash soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Soliq to'lovchilarga soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'lanish uchun bir qator kanallarni, jumladan telefon, elektron pochta va chatni taklif qilish mijozlarga xizmat ko'rsatish tajribasini yaxshilashga yordam beradi. Soliq to'lovchilarning muammolari va shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish ularning soliq ma'muriyatchiligidan qoniqishini oshirishga, soliq qonunchiligiga rioya qilishga tayyorligini oshirishga yordam beradi. Soliq qonunchiligiga rioya qilgan soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari yoki yengillashtirilgan jarimalar kabi imtiyozlarni taqdim etish, rioya qilishni rag'batlantirish va umumiy soliq tizimini yaxshilashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Soliq to'lovchilarga soliq xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari”** deb nomlangan uchinchi bobida soliq to'lovchilarga soliq xizmatlarini ko'rsatishda fiskal instrumentlardan foydalanishdagi muammolar hamda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish orqali soliq bazasini kengaytirish va samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish uchun fiskal vositalardan foydalanishning asosiy muammolaridan biri bu vositalarni suiiste'mol qilish ehtimoli hisoblanib, ba'zi tadbirkorlar soliqlardan qochish yoki noqonuniy imtiyozlar olish uchun fiskal sxemalardan foydalanishlari mumkin. Yana bir muammo fiskal vositalardan foydalanishni tekshirish va nazorat qilishning murakkabligi bo'yicha soliq organlari bunday sxemalarni aniqlash va ulardan foydalanishni isbotlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ular soliq firibgarligini aniqlash va hujjatlashtirish uchun katta kuch va resurslarni talab qilishi mumkin. Fiskal vositalar soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishning murakkab ma'muriy va byurokratik tartibiga olib kelishi mumkin. Ba'zi sxemalar qo'shimcha hisobotlar va hujjatlarni talab qilishi mumkin, bu ko'p vaqt talab qilishi va biznes samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Yana bir muammo fiskal vositalarning oldindan aytib bashorat qilib bo'lmasligidan o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Siyosiy va iqtisodiy omillar soliq qonunlari va qoidalarining o'zgarishiga, shuningdek fiskal sxemalardan foydalanishga olib kelishi mumkin. Bu doimiy ravishda yangi talab va shartlarga moslashishi kerak bo'lgan tadbirkorlar va soliq

to'lovchilar uchun beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi fiskal vositalar murakkab va texnik jihatdan tushunish va ulardan foydalanish qiyin bo'lishi mumkin. Bu soliq qonunchiligi va tizimlarida yetarli resurslarga yoki tajribaga ega bo'lmagan kichik biznes va soliq to'lovchilar uchun muammo bo'lishi mumkin. Bu xatolarga va fiskal vositalardan noto'g'ri foydalanishga olib kelishi mumkin.




#### 4-rasm. Chet el yuridik shaxslarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish sxemasi<sup>7</sup>

